

USMON AZIM SHE'RIYATIDA IJTIMOYLIK

Toshmamatova Farangiz Ulug'bek qizi

NavDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qalbidagi his-tuyg'ularini, dard-u quvonchlarini o'zining zalvorli fikrlari bilan go'zal badiiy tarzda bir ipga tiza olgan, xalqimizning ma'naviy dunyosini shakllantirishda turli mavzudagi she'rlari bilan kuchli ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast shoiri Usmon Azim ijodidagi ijtimoiylikning o'ziga xosligi, shoirning ijtimoiy hayotni tasvirlashdagi badiiy mahorati, falsafiylikka yo'g'rilgan ijtimoiy lirikasi bayon etildi.*

Kalit so'zlar: *lirika, ijtimoiy lirika, individual uslub, badiiy mahorat, ma'naviyat, vatanga muhabbat, sadoqat, laganbardorlik, sotqinlik, erkinlik, falsafiy ma'no.*

Аннотация: *В данной статье описывается своеобразие социальности в творчестве Усмана Азима выдающегося поэта современной узбекской литературы, которая прекрасно и художественно сплетает свои чувства боли и радости в своих сердечных раздумьях и который оказывает сильное влияние на формирование духовного мира нашего народа стихами на различные темы. Описывается художественное мастерство поэта в изображении общественной жизни его философски настроенная социальная лирика.*

Ключевы слова: *Лирика, социальный лирика, индивидуальный стиль, художественное, мастерство, духовность, любовь к родине, верность, чревоугодие, предательство свобода, философский смысл.*

Annotation: *This article describes the uniqueness of sociality in the work of Usman Azim, who, with his poems on various topics, beautifully and artistically combined his feelings, pains and joys in his heart with his sorrowful thoughts, and helped shape the spiritual world of our people, the poet's artistic skill in depicting social lyrics steeped in philosophy.*

Keywords: *Lyrics, social lyrics, individual style, artistic skill, spirituality, love of country, loyalty, flattery, betrayal, freedom, philosophical meaning.*

Kirish: Lirika – biror bir voqea yoki hodisadan ta’sirlangan holda vujudga keladigan his-tuyg‘ularni, kechinmalarni o‘zida aks ettirgan holda hayotni aks ettiruvchi vosita. Lirikada shoir jarayonga nisbatan o‘z fikrini bildirgan holda ijod qilgan ekan unda yolg‘iz shaxs fikrlarini, o‘ylarini emas, balki butun bir jamiyat dardini aks ettiradi, faqat bu holatga o‘zining individual uslubi bilan yondashadi. Va bunday asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarga aylanadi. Insonlarning hayoti, turmush tarzi, ularning o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi lirikaning bir turi bo‘lgan ijtimoiy lirika – insonlarning ijtimoiy hayotga, muhitga munosabati natijasida yuzaga kelgan. Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, fidoiylik, yurt dardi, xalq qayg‘usi, shuningdek jamiyatda ro‘y berayotgan nohaqliklar, insonlarda norozilikni keltirib chiqarayotgan ijtimoiy muommolar, ma’naviy buzuqliklar va manfaatlar uchun xizmat qilayotgan illatlarga nisbatan insonlarning munosabati asosida shakllangan ijtimoiy lirikada ham falsafiy mukamal, badiiy barkamol ijodga ega bo‘lgan ijodkor Usmon Azim o‘ziga xos uslubda, go‘zal ohanglarda ajoyib badiiy vositalar yordamida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarini yaratdi. Bunday asarlar insonni fikrlashga, mulohaza yuritishga va xulosaga kelishiga ko‘maklashuvchi, jamiyatdagi illatlarga, atrof muhitda ko‘plab ro‘y berayotgan ma’naviy buzuqliklarga nisbatan kurashga da’vat etuvchi shoir yanglig‘ jaranglaydi. Adabiyotda o‘z davrini yarata olgan ijodkor Usmon Azim o‘zining ijtimoiy she’rlarida davr yurgidagi murakkab tuyg‘ularni va bu tuyg‘ular vujudga keltirgan harakatlarni nafaqat kuylaydi, balki bu kuylar vositasida ana shu davr kishisiga ijobiy ta’sir etadi. Usmon Azim o‘z she’rlarida ijtimoiy hayotni aks ettirar ekan ba’zi bir o‘rinlarda majoziy tashbehlardan, ba’zi bir o‘rinlarda esa shaffof va ochiq ifodalardan foydalangan holda qalam tebratadi. Bunday jarayonlar esa ijodkorning individual uslubida o‘z aksini topganligining guvohi bo‘lamiz. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda ham mustaqillikdan keying davrda ham ijtimoiy hayotga nisbatan munosabat bildirgan she’rlarida hech bir vaqt o‘z ohorini yo‘qotmaydigan ajoyib fikrlarini, insoniy tuyg‘ularni go‘zal tarzda va hech kimga o‘xshamagan holda kuylay oldi.

“90-yillar boshlarida mustabid tuzum va yangicha qarash orasida keskin kontenental muhit hukmron bo‘lib, hamma ijodkorlar deyarli bir xil mavzu-ijtimoiy hayot muommolaridan yozar edi. Mustaqillikdan so‘ng bu mavzuning ohori qolmadi. Endi nimani yozish kerak? Bu savol hammani qiynagani rost. Usmon Azim ana shunday mafkuraviy-ma’naviy bo‘shliq davrida o‘zini ham she’riyat muxlislarini ham hayratga solib, unitilgan bir so‘qmoqdan yurib ketdi”¹-deb ta’kidlaydi filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev. Bunday holatni

¹. Kўнгил: ше’рият / Усмон Азим. Тошкент Янги аср авлоди, 2019. 13-14 Б

ijodkorning ko‘plab she‘rlarida uchratishimiz mumkin. Xususan “Baxshiyona” turkumiga kiruvchi she‘rlarida Elbek baxshi tomonidan aytilgan vatan ozodligi, el-u yurt dardi kuylangan go‘zal misralar bir da‘vat yanglig‘ jaranglaydi.

Toshdaymas, tog‘day bo‘lgin,
Qoyangda qush uyg‘onsin.
Eling senga qoqilmasin,
Eling senga suyansin.²

Elbek baxshining farzandlariga aytayotgan bu so‘zlari yurtning, xalqning har bir farzandiga tegishli. Farzandlariga daryodek va shamoldek ozod, oydek erkin bo‘lgan holda saratonda qolganlarga daraxt yanglig‘ bo‘lishligini, bu yurtni har xil itlarga talatmasligi kerakligini, elga faqat shon berishi, xalq uchun shirin jonni qiynashi lozimligini ham uqtirgan. Shuningdek qarag‘aga qarag‘adek emas bulbuldek javob qaytarmoqlik zarurligini, o‘lim kelsa ham ishq deb, dil deb, qochib emas jangda qurbon bo‘lib, dushman poyida emas osmon bo‘lib o‘lmoqlik lozimligini ta‘kidlagan. Shuningdek Elbek baxshining tilidan ijodkor har qanday jamiyatda uchraydigan fazilatlarni oqlab, illatlarga nisbatan o‘z noroziliklarini bildirgan.

Baxshining shogirdi Elamonga qarata aytgan nasihatlar hayotimizda juda ko‘p duch keladiganimiz salbiy holatlar, insonning ma‘naviyatini kirlaydigan illatlar qarshisida ham o‘zini yo‘qotmasligi, chidashi kerakligini va ohlarini qo‘shiqqa aylanishi lozimligini ham ajoyib tarzda uqtirgan.

Ustozim deganing she‘rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa, -
Chidagin bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin bolam-a, chidagin,
Oxlaring qo‘shiqqa aylansin.³

Hayotimizda shunday voqealar, holatlar bilan yuzlashamizki, ularga nisbatan faqatgina sabr bilan, toqat bilan javob bera olamiz. Shoir aytganidek, dardlarimizni tanimizga joylab chidashga majbur bo‘lamiz. Bu esa bizning butun insoniyatning og‘riqli yaramiz hisoblanadi. Bazan chin emas yolg‘onlar, yaxshi emas yomonlar, rost emas, aldamchi zamonlar g‘olib bo‘lishi, xalq manfaatlarini himoya qilishi kerak bo‘lgan mansab egalarining esa o‘g‘ri, riyokor, shuhratparast bo‘lishi mumkinligi, ularning xalq ustidan kulishi holatlari, donolar qorani oq deyishi,

² .Азим, Усман Сайланма: Шеърлар. - «Шарк»нашриёти - матбаа концерни, 1995.- 208 Б
³ Курсатилган манба 186 Б

shoirlar xaromni pok deyishi, qo‘rqqandan dushmanni do‘st deyishi, temirlar, toshlar odamman deb turishidek ayanchli holatlarga shoirlarning kuylari orqali, ana shu kuylar sadosi ostida jang qilayotgan xalqning birdamligi orqali barham berish mumkinligi ham ushbu she‘riy misralar orqali anglashiladi. Bunday kurash har bir insonning ona yurt oldidagi sharafli burchi hisoblanadi. Xalq tarixining muayyan bosqichlaridagi dolzarb bo‘lgan masalalarga nisbatan o‘z qarashlarini nafosatga yog‘rilgan ochiqlik holda olib chiqa olgan shoir Usmon Azim xalqni tog‘ri yo‘lga boshlovchi asarlari orqali milliy ma‘naviyatimizni shakllantirishimizga hamda ijtimoiy masalalarga nisbatan idrokli holda fikr yuritishimizga jasorat bilan zalvorli ko‘lamda ko‘maklashmoqda.

Keng dunyoning torligin ham bildim.

Kuylasang haq yorligin ham bildim...

Qafasda kuylash borligin bilgandim –

Kuylashda qafas borligin ham bildim.

“Hurlik haqida she‘rlar” turkumiga kiruvchu ushbu misralarda ijtimoiy hayotning azaliy muommolaridan biri bo‘lgan erksizlik va ana shu erksizlikda keng dunyoning ham tor kelishi, har qanday vaziyatda ham haqiqatni kuylay olgan insonga Allohning yor bo‘lishi holatlari o‘z aksini topgan. She‘rning davomida esa erksiz, ozodlikdan mahrum bo‘lgan holda ya‘ni qafasda kuylash borligi bunga tarix guvohligi, ammo kuylashda ham qafas, erksizlik mavjudligini shoir anglab yetganligini ta‘kidlaydi.

Ijodkor Usmon Azim o‘zining serqirra g‘oyalari orqali yaratgan ajoyib tashbehlari bilan faqat o‘z manfaatlarini o‘ylaydigan, faqat o‘zim deb yashaydigan insonlarni achchiq kulgu ostiga oladi.

-Pastlashib ketayapti bolalarning bo‘yi.

Yaqinda pakana xalqqa aylanamiz...

-Yerga yaqin bo‘lamiz, -pinagini buzmadi

osmonga yaqin o‘tirgan zotlar.

Osmon bizdan uzoqlashadi,-

qo‘rqa-pisa shivirladi kimdir...

Uni uzoqlashayotgan osmongina eshitdi, xolos.⁴

Afsuski bu achchiq haqiqat. Or-nomusi, shani toptalayotgan “kichkina” odamlar bilan manfaatlari himoyalangan “katta” odamlarning ya‘ni “bo‘yi osmonga yetgan shaxslarning” zarracha ishi yo‘q. Albatta besh qo‘l barobar emas o‘zligini yo‘qotmaydigan, xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘ygan oliyjanob

⁴ .Azim, Usman Saylanma: Шесть шар. - «Шарк»нашриёти - матбаа концерни, 1995.- 410 Б

insonlar ham oramizda talaygina. Ammo guruch kurmaksiz bo‘lmagani kabi insonlar ham har xil toifada bo‘ladilar. Yuqoridagi misralarda ana shunday “katta” va “kichik” toifadagi odamlar o‘rtasidagi taffavutlar falsafiy tarzda bayon etilgan.

“Kichkinamga telpak olaman,
O‘rtanchamga botinka,
Ammo kattamga palto olishga
Puli qurg‘ur yana yetmaydi...”
Mutanosiblik qonuni,
Shu yerda ham bormisan, ablax?⁵

Dunyoning bir kamligiga, uning kami hech qachon to‘lmasligiga ishora qiluvchi ushbu she‘r orqali ijodkor nafaqat ijtimoiy turmushning, balki butun borliqning dardini go‘zal badiiy tarzda ifodalay olgan. Turmushning bir yog‘ini to‘ldiraman desang bir yog‘i kemptik, kemptigini yamayman desang boshqa bir yog‘i kam bo‘lib qolaveradi. Bu esa shoir nazdida hayotiy mutanosiblik hisoblanadi. Bu dunyo bir kam dunyo ekanligi ushbu misralarda ijodkorning individual uslubi orqali g‘o‘zal tarzda ifodalangan.

Shoir ijodining o‘ziga xosligi uning ijtimoiy mavzudagi she‘rlarida ham o‘zining butun jilosi bilan namoyon bo‘lib turadi. “agar do‘sting nohaq ersa” deb boshlanguvchi sherida Usmon Azim bu dunyoda har qanday insoning – do‘sting ham yoring ham otang ham yurtning ham xalqing ham vatanning ham nohaq bo‘lishi mumkinligini agar ularning barchasi nohaq bo‘lgan taqdirda ham, ularning barchasi seni yerga urganda ham qaro yer ko‘tarishi, ammo xudo ursa yer am ko‘tarmasligini ta‘kidlab o‘tgan. Bu sherdan mazmunan bugungi ijtimoiy hayotimizda ko‘p uchraydigan sotqinliklar, hiyonatlar qoralangan, har qanday holatda ham Alloh bilan ko‘ngil bog‘lash lozimligi uqtirilgan.

Daryo yo‘lin burdi.

Daryo – xiyonat.

Qushlar, bog‘lar, voha... - xiyonatga qul

Faqat sahro qoldi – to‘zg‘igan ofat,

Yolg‘iz daraxt qoldi sog‘inchla mashg‘ul.⁶

“Sahrodagi daraxt” nomli ushbu she‘rda xiyonat qoralangan. Insonlar orasida turli ko‘rinishda ro‘y beradigan va turli oqibatlariga olib keladigan xiyonat ushby sherda majoziy shaklda qoralangan. Daraxtga daryo xiyonat qilgach sahro unga ya‘ni daraxtga muhabbat beradi. Ammo daraxt o‘z daryosini qumsaydi va sahroga “meni bo‘g‘ib o‘ldir issiq bag‘ringda, yoki saksovulga tezrqo aylantir.

⁵ .Azim, Usman Saylanma: Шеърлар. - «Шарк»нашриёти - матбаа концерни, 1995.- 385 Б

⁶ . Танланган асарлар. 2-жилд /У.Азим. – Тошкент: F.Фулум номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018. 415 Б

Qachonlardir sadoqat, vafo yordamida ko‘kargan daraxt kun kelib xiyonat girdobida sahroning saksavuliga aylanishi holatlari aks ettirilan. Ana shunday illatlar sababli atrofimizda “sahroning saksavullari ko‘paygan”. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, sahroda saksavullar ne qadar ko‘p bo‘lsa ming afsuski jamiyatizda hozir ham xiyonatkor daryolar ham, jabrdiyda daraxlar ham ko‘p.

Otlar yelar. Shamol-u shiddat...

Beyo‘llikning yo‘llari uzun.

“Berajakmiz jonni – beminnat!

Xurlikdagi ona yurt uchun...”⁷

Yigirma beshinchi yil” nomli she’rida vatanparvarlik ulug‘langan. Vatan ozodligi, hurligi yo‘lida jon bergan mard o‘g‘lonlarning jasorati kuylangan. Ona yurt uchun jang qilayotgan botirlar “Bizdan keyin o‘zbek bolasi ozod yurtni ko‘rsin” deya manguликka muhrlangan vasiyatlarni baralla aytgan holda hurlikda ona yurt uchun jonlarini beminnat berishini o‘z shiorlariga aylantirishgan go‘yoki.

Zalvorli fikrlari bilan ma’no terangligiga erisha olgan Usmon Azim ijodida bugungi jamiyatimizda uchraydigan ba’zi bir illatlar ochiq holda ba’zilari esa majoziy ma’no kasb etgan holda o‘z bo‘yini ko‘rsatadi.

Qo‘lga o‘rgatilgan bo‘ri bu – kuchuk,

Qorni to‘q – sarqitning har xili... Yaloq...

Sobiq bo‘ri qani dumingning uchi,

Sobiq dahshat, nega kesilgan quloq?⁸

Har qanday davrda yoki har qanday jamiyatda ham uchraydigan o‘z manfati yoki ma’lum bir mansab uchun uchun o‘zligidan kechgan, o‘zligini butunlay yo‘qotgan insonlar, shuningdek oliy illat bo‘lgan laganbardorlik qoralangan ushbu she’r naqadar achinarli holatlarni o‘zida mujassam eta olgan. Qandaydir nishonlar, qandaydir obro‘lar uchun o‘z erkini sotgan, o‘zligini butunlay yo‘qotgan olchoq insonlar qoralangan. Dumi va quloqlari kesilgan bo‘ri, qo‘lga o‘rgatilgan va qorni to‘ydirilayotgan bo‘ri butunlay itga aylanib bo‘lgan, uni bo‘ri deb chaqirsa qaramaydi, ammo it deya murojaat qilsa labbay deydi. Majoziy xarakterdagi ushbu she’r orqali ijodkor Usmon Azim bunday ayanchli holatga “sobiq dahshat” deya nom beradi, chunki bu holat insoniyat yaratilibdiki, davom etib kelmoqda, va afsuski bundan keyin ham davom etsa kerak.

Shoirning “Ertakka iqtibos” nomli she’rida erkinlikdan ko‘ra qullikni avzal biluvchi ba’zi bir insonlarning holatlari o‘ziga xos holda oltin baliqcha misolida

⁷Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги нашриёт – матбаа ижодий ўйи, 2018ю 446Б

⁸Курсатилган манба 398 Б

talqin etilgan. Bir odamning qarmog‘iga ilingan baliqcha undan nima istagi borligini, u istagini bajo etishini aytadi, ammo odam unga yaxshilik qilib uni qayta daryoga otadi. Baliqcha esa qayta- qayta ana shu qarmoqqa ilinaveradi. Odamdin istagini so‘rayveradi, odam esa yana unga takror va takror hurlik beraveradi, lekin baliqcha insonning bu yaxshiligini bilmaydi, yordamini tushunmaydi, insonni qoralab faryod chekadi.

Ammo baliq faryod urdi,
G‘ami sig‘may dunyoga;
-Qarmog‘iga ilinmanglar,
Yana tashlar daryoga!..⁹

Qilinayotgan yaxshilik har doim ham qadrlanavermaydi. Ba‘zi toifa odamlar yaxshilikni bilishmaydi, ularga qilayotgan yordamingizni yomonlikka yo‘yishadi. Yuqoridagi she‘rda ayni shu holat qalamga olingan. Ushbu she‘rni boshqacha talqin qilish ham mumkin. Ya‘ni o‘zi yashayotgan muhitdan to‘ygan insonlar bu ayanchli holatdan qutilmoq uchun qayta- qayta bitta harakatni amalga oshiraveradi. Baliqcha ham balki o‘z dunyosidan bezor bo‘lgandir, uni tark etmoqni, undan qutilmoqni istar. Ammo ertaklar shoir aytgandek tanti. Ertakda yaxshilik g‘olib bo‘ladi. Bu misralar orqali bir odam kimgadir yordam qilayapman deb unga o‘zi bilmagan holda yomonlik qilib qo‘yish holati qalamga olingan.

Xulosa: O‘zining falsafiy teran va nafis mushohadaga yog‘rilgan she‘rlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur o‘rin olgan ijodkor Usmon Azim she‘riyatida turli mazmun kasb etuvchi she‘rlar o‘zining tarbiyaviy ahamiyati, dolzarb muommolarga bag‘ishlanganligi va doim barhayotligi bilan ajralib turadi. Shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy mavzudagi she‘rlari orqali ijodkor vatan uchun, uning shonli kelajagi uchun jon bergan va jon berayotgan insonlarni kuylash bilan bir qatorda faqat o‘zini o‘ylagan laganbardor, ikkiyuzlamachi, sotqin insonlarni qoralagan. Bunday jarayonda turli xil badiiy vositalar va ajoyib tashbehlardan foydalangan. Bugungi o‘zbek adabiyotining yetuk namayondasi bo‘lgan Usmon Azim ijodida ijtimoiy masalalarga qaratilgan o‘zgacha ruh va ma‘no kasb etgan, ijodkor qalb so‘zlari ya‘ni qalb nolarini bo‘y ko‘rsatib turadigan she‘rlarning ko‘p va salmoqli ekanligining guvohi bo‘lamiz.

⁹ <http://www.ziyouz.com>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018. 456 б.
2. Кўнгил: ше’рият / Усмон Азим. – Тошкент Янги аср авлоди, 2019. 320 б
3. Азим, Усман Сайланма: Шеърлар. - «Шарк»нашриёти - матбаа концерни, 1995.- 432б.
4. Umarali Normatov Ijod sehri. Sharq, 2007.
5. Qayumov A. She'riyat jilolari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996– 128 b.
6. <http://www.ziyouz.com>